

# Evfemizmlarda Milliy Olam Manzarasining Ifodalanishi

N. Z. Ruziyeva<sup>1</sup>

**Annotation:** In our research, the language tools are analyzed, and at the same time, the ways of conceptualizing them in the language are analyzed. was studied. In addition, as a result of the national-cultural, educational values of the people being reflected in the language, it is reflected in the examples of the research work.

**Key words:** national picture of the world, euphemisms, euphemistic picture of the world, veiling.

Jahon tilshunosligida evfemizatsiya hodisasi juda keng o'rganilgan bo'lib, ularning leksik-semantik, struktur-stilistik jihatlari tadqiq qilingan. Jumladan, ingliz, chex, nemis, fransuz, xitoy tillarida evfemizmlar tilshunoslar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Jumladan, jahon tilshunosligida J.Vandries, R.Rodman, Y.Toropseva, O.Sidandebaevalar, o'zbek olimlaridan X.Qodirova, SH.Shamsiyevalar ham evfemizmlarni konsept doirasida tadqiq qilishgan; evfemizmlarga bag'ishlangan lug'at, qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalar chop etilgan.

Evfemizmlarning hosil bo'lishi nutq uslublarida qo'llanilishi bilan ham farqlanadi. Ushbu jihatlardan kelib chiqqan holda evfemizmlar badiiy til yoki matbuot tili sifatida siyosiy yoki diplomatik diskursda bajaradigan vazifalariga qarab ham tahlil qilingan. Masalan, rus tadqiqotchisi Y.Temirbayeva AQShda nutqiy kommunikatsiyada siyosiy evfemizmlarning vujudga kelishini va siyosiy tilda lingvistik vazifalarning muammolarini o'rgangan bo'lsa<sup>2</sup>, E.Kiprskaya siyosiy evfemizmlarning publitsistik diskursda asl voqelik haqidagi ma'lumotlarni pardalash, yashirish vazifalarida kelishini ko'rsatib o'tgan<sup>3</sup>. Tilshunoslikda evfemizmlar bir va bir nechta tillar doirasida ham chog'ishtirilib o'rganilgan. Xususan, N.Tishina ingliz va rus tillaridagi evfemizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini<sup>4</sup>, tadqiq etgan bo'lsa, L.Poroxnitskaya ingliz, nemis, fransuz, ispan va italyan tillari materiallarida evfemiyaning konseptuallashuvini qiyosiy o'rgangan, qiyoslangan materiallar asosida ushbu millat vakillarining madaniyati, dunyoqarashi, dunyoni anglashi kabi omillar tahlil qilingan<sup>5</sup>.

Olamning inson ongida aks etishi olam manzarasi hisoblanadi. Shu asosda olamning diniy, afsonaviy, ilmiy va lisoniy manzaralari tushunchalari fanga kirib keldi. Olamning lisoniy manzarasi bu – olam va unga bog'liq barcha tushunchalarning til orqali ifodalanishiga aytiladi. Yuqoridagi fikrlarni to'ldirgan holda R.Shirinova olam manzarasi atamasi munozaralarini quyidagicha izohlab o'tadi: "Bugungi kunda barcha fanlarda, shu jumladan, fizika, matematika, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik, etnomadaniyatshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlarida ham "olam manzarasi", "olamning lisoniy manzarasi", "olamning ilmiy manzarasi", "olamning milliy manzarasi", "olamning konseptual manzarasi", "olamning yaxlit manzarasi" atamaları borasida ko'plab ilmiy bahslar kuzatilmoqda. Ayrim olimlarning fikricha, "olamning lisoniy manzarasi" atamasi mohiyatiga ko'ra unchalik adekvat

<sup>1</sup> Ph.D, Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

<sup>2</sup> Темирбаева Е.К. Политические эвфемизмы в речевой коммуникации США: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1992. – 22с.

<sup>3</sup> Кипрская Е.В. Политические эвфемизмы как средство камуфлирования действительности в СМИ (на примере конфликта в Ираке 2003-2004 гг.): Дисс. ... канд. филол. наук. – Киров, 2005. – 159с.

<sup>4</sup> Тишина Н.В. Национально-культурные особенности эвфемии в современном английском и русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 22с.

<sup>5</sup> Порохницкая Л.В. Концептуальные основания эвфемии в языке (на материале английского, немецкого, французского, испанского и итальянского языков): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2014. – 23с.



jaranglamaydi va shu sababli “olamni lisoniy idrok qilish manzarasi”, “olamning lisoniy modeli”, “olamning konseptual manzarasi” kabi atamalar ham taklif qilinadi”.<sup>6</sup>

Olam obrazini to‘g‘ridan-to‘g‘ri reflekslar vositasida anglash uchun uni inson “o‘z boshidan kechirishi” zarur. Olam manzarasi “odatdagi” bilish orqali anglanmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. A.K.Kamenskiy olamning lisoniy manzarasini mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so‘zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so‘zli hosila<sup>7</sup> sifatida izohlaydi. M.Xaydeggerning fikriga ko‘ra, “manzara” so‘zini talaffuz qilganda, birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o‘ylaymiz, “olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi”. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o‘rtasida murakkab munosabatlar mavjuddir. Bunda muloqot vaqtida nafaqat tinglovchining interpretatsiyasi, balki so‘zlovchining intensiyasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o‘ngchap, sharq-g‘arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor kabi o‘lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an‘analar, tabiat va landshaft, ta‘lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo‘lmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo‘lib, ularning shakllanishiga omil yaratadi. Inson o‘zini va dunyoni anglashda umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasiga tayanadi. Masalan, suhbatdoshning etik-estetik dunyoqarashini hisobga olgan holda gaplashish, ayrim o‘rinlarda “pardalash”, suhbatlashish jarayonida faqat o‘z xohish istaklariga mos munosabatni talab qilishdek noo‘rin holatlarni bartaraf qilishga urinish o‘zbek xalqining mentalitetiga xos andishalilikning bir misolidir. “Pardalash” har bir millat tilida o‘ziga xos qoidalariga ega bo‘lsada, asl mohiyat ma‘lum bir fikrning asl mazmunini yashirgan holda chiroyli yoki yumshoq qilib o‘zgalar iste‘moliga havola qilishdir.

Nutqda “pardalash” xususiyatiga ega bo‘lgan evfemizmlar lingvomadaniyat birligi sifatida namoyon bo‘lib, nutq faoliyatining barcha sohalarida qo‘llanilishi yuqoridagi bo‘limlarimlarda tahlil etildi. Evfemizmlarni turli nutq vaziyatlarda tadqiq etish, ularni ikki noqardosh til – ingliz va o‘zbek tillari milliy olam manzaralaridagi o‘ziga xosligini o‘rganishni taqozo etadi. Olam manzarasining ko‘pgina shakllari mavjud bo‘lib, bizning tadqiqotimiz markazida olamning evfemik manzarasi yotadi.

Olamning evfemik manzarasi deganda O.Tsidendambayeva shunday yozadi: “Dunyoning evfemik tasviri - evfemizm yordamida ifodalangan dunyoning yaxlit lingvistik tasviridir. Tilning evfemik fondi etnik guruh madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli ma‘lumot manbai hisoblanadi, chunki u odamlarning atrofdagi dunyo haqidagi g‘oyalarini “saqlaydi”. Dunyoning evfemik tasviri - bu universal, barcha tillarga xos xususiyat, milliy dunyoqarash xususiyatlarini ifodalovchi maxsus til birliklarining obrazli tizimi.”<sup>8</sup> Bizningcha ham, olamning evfemik manzarasi – olamni evfemik vositalar orqali ifodalash usuli bo‘lib, asosan, millat madaniyatini aks ettiruvchi, til fondini boyituvchi birliklar tizimidir. Shu asosda ta‘kidlash lozimki, tilning evfemik fondi millatning madaniyati va mentalitetini namoyish etishda ko‘zgu vazifasini o‘taydi.

Avvalo, evfemizmlarni konsept doirasida tahlil etar ekanmiz, “konseptosfera” atamasi va “semantik maydon”ning ma‘nolarini izohlashni lozim deb o‘ylaymiz. “Konseptosfera” inson tushunchalarining yig‘indisida o‘z aksini topadi. Konseptosferaning boyligi, asosan, xalqning milliy madaniyati, xalq og‘zaki ijodi, fan va badiiy adabiyot boyligi bilan o‘lchanadi<sup>9</sup>.

<sup>6</sup> Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Дисс... фил.фан.док. – Т., 2017, – Б. 17.

<sup>7</sup> Цыдендамбаева О.С. Эвфемистическая картина мира: концептосфера «человек» (на материале бурятского, русского, английского и немецкого языков): Автореф.дисс.на соис.учен.степени канд.филол.наук. –Улан-Удэ, 2011. – 21с.

<sup>8</sup> Цыдендамбаева О.С. Эвфемистическая картина мира: концептосфера «человек» (на материале бурятского, русского, английского и немецкого языков): Автореф.дисс.на соис.учен.степени канд.филол.наук. –Улан-Удэ, 2011. – 21с.


<sup>9</sup> Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка / Д.С. Лихачёв // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 280–287



“Semantik maydon” esa – konseptosferaning til belgilari yordamida ifoda etiladigan qismi bo‘lib, u asosan ma’nolarni shu til orqali ifoda etadi. Semantik maydon, deb yozadi Azim Hojiyev, so‘z va iboralarni ma’lum bir arxisema asosida birlashtiruvchi gruppaga. Masalan, “vaqt” semantik maydoni yil, oy, hafta, kun kabi leksik va frazeologik birliklardan tashkil topadi<sup>10</sup>.

Evfemizmlarning nutqda qo‘llanilishi sotsiolingvistik va psixolingvistik omillarga bog‘liq bo‘ladi shuning uchun ular murakkab lingvistik hodisa sanaladi. Masalan, inson hayoti tushunchasini ifoda etuvchi evfemizmlar tahlil qilinsa, davrlar kesimida, dastlab insonning tug‘ilishi bilan bog‘liq evfemizmlar o‘rganiladi. Insonning **tug‘ilishi** (birth) inglizlarda *happy event, to come into existence, the blessed event of a baby’s arrival, the gift of new life* kabi evfemik iboralar yordamida ifoda etiladi. Chunki, inglizlar milliy olam manzarasida bolaning tug‘ilishi oilada baxt ramzi ma’nolarini anglatadi: *Man was looking forward to for the **happy event** in front of the delivery room.* (The New York Times 2010).

Ingliz tilida *the happy event* evfemasi bilan bir qatorda *the black swan event* – uzoq kutilgan farzand, *childbearing* – bolani dunyoga keltirish, *have a baby* - bolani dunyoga keltirmoq kabi evfemik shakllar ham qo‘llaniladi.



Sxema 1. *Tug‘ilish* tushunchasining konseptosferasi (ingliz tili evfemizmlari misolida)

<sup>10</sup> Хожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б.74.





### Sxema 2. *Tug'ilish* tushunchasining konseptosferasi (o'zbek tili evfemizmlari misolida)

Yuqoridagi sxemadan o'zbek tilida *dunyoga kelmoq* evfemasi bilan bir qatorda *ko'payishmoq*, *chaqaloq bo'shanib oldi*, *suyunchi*, *chaqaloq ingasi eshitildi*, *yangi mehmon keldi*, *vujudga kelmoq*, *dunyo yuzini ko'rmoq* kabi evfemik birliklar ham qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

Tahlillarimizga asoslangan holda, shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tilidagi evfemik vositalarning qo'llanilishida o'zbekona ibo-hayo, andishalik kabi fazilatlar mujassamdir. Jumladan, *Uning ozg'in qoramtir qo'llarida biron sehr bor ekanmi, besh-olti daqiqa uringandan keyin to'satdan chaqaloq ingasi eshitildi* (P.Qodirov Avlodlar dovoni. – B.134.).

Yoki,

***Dunyoga keldingiz, qutlayman,***

*Sho'x bo'ling, to'q bo'ling, ko'zda bo'lsin cho'g'.*

*Endi hammasiga chidab yashaysiz,*

*Endi kurashasiz,*

*Boshqa iloj yo'q.* (Shodi Otamurod)

Misollardagi *chaqaloq ingasi eshitildi*, *dunyoga keldingiz* kabi evfemik vositalar o'zbek tili madaniy nutqida bola tug'lganligini ta'sirli pardalash orqali ifoda etish uchun qo'llanilgan.

*Tu'g'ish* yoki *tug'ilish* konseptini to'g'ridan -to'g'ri leksema bilan ifodalash suhbatdoshlar o'rtasida yoshi va jinsi, shuningdek, qarindoshlik munosabatlariga nisbatan axloqiy noqulaylik yaratishini oldini olish maqsadida evfemik birliklarga murojaat qilinadi: *Nazoratchi shunday dedi-da, buragichni olib, mashinaning nomerini yecha boshladi. Shu mahal ichkaridan chaqaloqning ingasi eshitildi. Hamshira yugurib chiqib, Nusratni tabrikladi.* (Shodmon Otabek. Asaloyning tog'asi. 30.03.2014.)

***Yangi mehmon keldi dunyoga,***

*Qarshi oldi go'dakni zamin,*

*Yo'rgakladi tebratish uchun,*



*Aylanardi shoshilmay vazmin. (A.Omonturdiyev)* <sup>11</sup>

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar o'ziga xos nutqni "pardalash" bilan bir qatorda nutqimizni jozibador va ko'rkli qilishga yordam beradi. Ular inson hayotining birinchi kundan so'nggi kuniga qadar hayot va o'lim o'rtasidagi jarayonlarni aks ettiradi. Bizning bolajon va andishali xalqimiz bo'lajak onani - homilador ayolni parvarish qilish va qadrlashni yuksak darajaga qo'yadi. Qadimdan ular bo'lajak ona va bolaning talabi va ehtiyojidan nimani his qilishlarini anglashgan.

Tug'ilish jarayonining qanday kechishi, chaqaloqning sog'lig'i va xarakteri homiladorlik paytida onaning kayfiyati, sog'lig'ining qay darajada asralganiga bog'liq, deb bilishgan. Bolaning xavfsiz tug'ilishi uchun (jarohatlar va tug'ma nuqsonlarsiz) onaga homiladorlikning ilk kundan sog'lom va hissiy jihatdan sokin muhit yaratib berish lozimligi ayon bo'lgan, oila mas'ullariga bunday shart-sharoitlarni ta'minlash vazifasi yuklatilgan. Mehr-muxabbat bilan parvarishlangan xomilador ayol sog'lom farzandni dunyoga keltirishiga, bu farzand xonadon quvonchi, bobo-buvi, ota-onaning kelajagi bo'lishiga ishonishgan: *boshqorong'u, yangi mehmon* kabi evfemizmlar yuqoridagi jarayonlarni o'zida aks ettirgan evfemik birliklar jumlasidandir.

Ota-onaning sevgisi, kichkina bolani hayot to'la bo'lgan ko'plab kasalliklar va qiyinchiliklardan himoya qilish istagi har doim chaqaloqning sog'lig'i va baxtli kelajagini ta'minlash uchun kerakli barcha talablarni va amallarni bajarish istagini uyg'otgan. Ushbu istakka bolani ehtiyotkorlik bilan parvarish qilish, sanitariya me'yorlariga rioya qilish, maxsus parhez va boshqalar yordamida erishilgan. Shuning uchun hozirgi kunga qadar momolarimiz, onajonlarimiz xomiladorlikning ilk kunlaridan bir oz muddat o'tgunga qadar, xomiladorlikni oshkor qilmaslikka harakat qilishadi yoki estetik qoidalarga rioya etgan holda *yumshatish* va *pardalash* uchun evfemizmlarni qo'llashadi. Masalan, o'zbek tilida **bo'g'oz** so'zi madaniy muloqot talabiga javob bermaydi, shuning uchun rasmiy so'zlashuvda bu so'z o'rnida *ikkiqat, bo'yida bo'lmoq, homilador, og'iroyoq, yukli* kabi neytral evfemalar qo'llanilsa, badiiy adabiyotda *yuzida dog'i bor, bosh qorong'u, yukli bo'lmoq, bo'lajak ona, gumona, gavhar, go'zallik o'g'risi, dog' paydo bo'lmoq* kabi evfemik birliklar ishlatilishini kuzatish mumkin: *Turmush qurgandan keyin Zulfiyaning yuzlarida dog'lar paydo bo'ldi.* (G'afur G'ulom. Puch umidlar. 13 b).

*Shokir aka qizimning yukli ekanligini eshitib, Xudo oq yo'l bersin dedi.* (A.Omonturdiyev)

*Niso buvining endigi qayg'usi Mehrining bo'yida bo'lib qolishi, chunki Faxriddindan uning bo'yida bo'lishini sira xohlamas edi.* (Abdulla Qahhor. Boshsiz odam. ziyo.uz)

Tarixan o'zbek tilidagi **homilador** evfemasi tojik tilida "ko'tarib yuruvchi" sifatiga, "bo'yida bo'lgan" ma'nosini anglatadigan arabcha *homila* otiga "ega bo'lmoq" ma'nosini anglatadigan tojikcha *doshtan* fe'lining - *dor* hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, *ikkiqat* ma'nosini anglatadi<sup>12</sup>. Masalan, **Homiladorlikning ilk davrlarida ko'pchilik ayollarda boshqorong'ulik yoki, fan tili bilan aytganda, toksikoz holati kuzatiladi.** ("Tashxis", 2016. № 32. 21 b).

O'zbek lingvomadaniyatida homiladorlik tushunchasini kognitiv assotsiasiyasi, asosan, ayollarning fiziologik holatidagi o'zgarishlar, ya'ni tashqi ko'rinishi (*ikkiqat, dujon, homilador, bo'yida bo'lmoq*) va husnidagi (*dog'i bor, dog' paydo bo'lmoq*) o'zgarishlar bilan bog'lanadi. Shu bilan birga ona qornidagi bolaning qimmatbaxo gavharga o'xshatish orqali *gumona, gavhar* kabi evfemik vositalar qo'llaniladi.

Ona bo'lishiga bir necha kunlar qolgan, ya'ni **tug'ish arafasida** bo'lgan ayollarga nisbatan *oyi to'lmoq, oy kuni yaqinlashmoq* kabi evfemik vositalar qo'llaniladi. Jumladan, *G'anijon xotini homilador bo'lganda ham, bolani ko'tarib yurganda ham, oy-kuni yaqinlashib qolganda ham, bunga qishloqda har kuni, har yerda bo'layotgan va bo'ladigan hodisa deb qaragan edi.* (A.Qahhor. Karavot)

<sup>11</sup> Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. 2006. – Б. 43.

<sup>12</sup> Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. I - V томлар. – М.: 1974-1989. –С.132.



Ingliz tili evfemik olam manzarasi ham juda boy bo‘lib, *pregnant* so‘zi o‘rnida *expecting, preppers, eating for two, in the family way, have bun in the oven, in the pudding club, anticipating, up the duff* kabi evfemik so‘z va iboralar qo‘llaniladi.

Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, har ikkala tilda ham ayollarning homiladorlik holatini ko‘rsatuvchi evfemizmlar juda ommabop, ya‘ni ular xalq tomonidan keng va samarali qo‘llanadi. Ingliz tilida *preppers* evfemasining kelib chiqishi tahlil qilinsa, ushbu so‘z Britaniya ingliz tilining norasmiy nutqida qo‘llaniladi. Uning birinchi bor tezaurus lug‘atida qayd etilishi 1940-45 yillarda sodir bo‘lgan<sup>13</sup>. Masalan, *That time that Andy thought she got chlamydia, but really she was just preppers!* (“Revenge wears prada” 4, 2013. Daily beast)<sup>14</sup>

Shuningdek, *have bun in the oven* idiomatik evfemasi homiladorlikni ifoda etishning eskirgan kinoyali shakli hisoblanadi<sup>15</sup>. Ko‘pgina lug‘atlarda ushbu evfemik iboraning homiladorlik ko‘rsatkichi vositasida qo‘llanilishi qayd etilgan. U asosan idioma sifatida ishlatiladi. Evfemik iborada *bun* shirin kulcha – *chaqaloq* degan ma‘noni va *oven* pech – onaning bachadonini anglatadi. Oksford onlayn lug‘atiga ko‘ra xomila ona qornida xuddi shirin kulcha kabi kattalashib o‘sishi sababiga idiomatik evfemizm paydo bo‘lgan. Ibora nemis, dan va italyan tillarida deyarli bir xil ma‘nolarda qo‘llaniladi.<sup>16</sup> Ibora ilk bor 1951 yilda Nikolas Monsaretning “Cruel Sea” romanida qo‘llanilgan. Masalan, *Bennet says “I bet you left a bun in the oven, both of you”. Then suddenly he turned a grey-green color and lurched out of the room. They heard him stumbling up the ladder, and the clang of the lavatory door behind him”*<sup>17</sup>.

Have bun in the oven evfemik iborasining ekvivalenti sifatida *in the pudding club* evfemasi ham qo‘llaniladi. Ikkalla evfemizm ham Britaniyada paydo bo‘lgan. *In the pudding club* evfemasining kelib chiqishiga nazar tashlansa, ilk bor adabiyotda, 1936 yilda, Jeyms Kurtisning “Gilt Kid” asarida qo‘llangan. Ushbu evfemik birlik homilador ayol qornining shakli puding shirinligi shakliga o‘xshatilishi asosida kelib chiqqan bo‘lishi mumkin degan ehtimol mavjuddir. Bu juda eski davrdan inglizlarning shevalarida qo‘llanib kelingan evfemik birlik degan fikrlar ham mavjud<sup>18</sup>: *You were put in the pudden club by the squire’s son.* (James Curtis. Gilt Kid. –P. 84.)

Bundan tashqari, *up the duff* evfemik birikmasi ham aynan *in the pudding club* (homilador) ma‘nosini anglatadi. Chunki ingliz tilida *pudding* so‘zining sinonimi *dough-duff* ham puding (tarkibida jele maxsuloti bo‘lgan inglizlar taomi) ma‘nosini anglatadi. Masalan, *You two have only been married for a couple of months, I can’t believe you’re up the duff already!* (Farlex Dictionary of Idioms)

Shunday qilib, yuqoridagi tahlillarda ingliz milliy olam manzarasida homiladorlik konseptini anglatuvchi evfemizmlar asosan taomlar, ayniqsa, shirin kulcha (*bun*), puding (*pudding, duff*) kabilarga o‘xshatilishini, shu bilan birga ovqat yeyish (*eating for two*) jarayoni bilan ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash zarurki, evfemizmlarda milliy olam manzarasining qardosh bo‘lmagan ikki til – ingliz va o‘zbek tillarining lingvistik olamida tasvirlanishi, ularning o‘xshashlik va farqli tomonlari ushbu millatlarning yashash tarzi, etnik taraqqiyoti, tarixiy davri, urf-odati kabi jabhalarida aniqlanadi. Shu bilan birga, milliylik lingvistik olam tasvirida ham namoyon bo‘ladi.

<sup>13</sup> <https://www.dictionary.com/browse/preppers>

<sup>14</sup> <https://www.english-corpora.org>

<sup>15</sup> <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/have-a-bun-in-the-oven>

<sup>16</sup> <https://literarydevices.net/a-bun-in-the-oven/>

<sup>17</sup> <https://literarydevices.net/a-bun-in-the-oven/>

<sup>18</sup> <https://www.phrases.org.uk/meanings/200600.html>



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка / Д.С. Лихачёв // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 280–287
2. Кипрская Е.В. Политические эвфемизмы как средство камуфлирования действительности в СМИ (на примере конфликта в Ираке 2003-2004 гг.): Дисс. ... канд. филол. наук. – Киров, 2005. – 159с.
3. Темирбаева Е.К. Политические эвфемизмы в речевой коммуникации США: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1992. – 22с.
4. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. 2006. – Б. 43.
5. Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. I - V томлар. – М.: 1974-1989. – С.132.
6. Тишина Н.В. Национально-культурные особенности эвфемии в современном английском и русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 22с.
7. Порохницкая Л.В. Концептуальные основания эвфемии в языке (на материале английского, немецкого, французского, испанского и итальянского языков): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2014. – 23с.
8. Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Дисс... фил.фан.док. – Т., 2017, – Б. 17.
9. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б.74.
10. Цыдендамбаева О.С. Эвфемистическая картина мира: концептосфера «человек» (на материале бурятского, русского, английского и немецкого языков): Автореф.дисс.на соис.учен.степени канд.филол.наук. –Улан-Удэ, 2011. – 21с.
11. <https://www.dictionary.com/browse/preggers>
12. <https://www.english-corpora.org>
13. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/have-a-bun-in-the-oven>
14. <https://literarydevices.net/a-bun-in-the-oven/>
15. Ruziyeva, N. (2023). ЭВФЕМИЗМ ВА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР МУНОСАБАТИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 36(36). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/10022](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10022)
16. Ruziyeva, N. (2023). EVFEMIZM VA SINONIMIYA MUNOSABATI XUSUSIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 36(36). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/10021](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10021)
17. Nafisa Zarifovna, R. . (2022). EVFEMIZMLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI. Scientific Impulse, 1(3), 750–753. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1144>

